



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA VARIATIV TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Bobomurotov S.M.

Termiz davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qitish, mazmun, psixologik, pedagogik, o'quvchi, ta'lim, innovatsiya, shaxs, zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, shakl, metod, vosita, ilm, ijod, faoliyat, takomillashtirish, yondashish.

Ключевые слова: начальный класс, обучение, содержание, психолого-педагогическое, ученик, образование, инновация, личность, современное образование, педагогическая технология, форма, метод, средство, наука, творчество, деятельность, совершенствование, подход.

Key words: primary class, teaching, content, psychological, pedagogical, student, education, innovation, personality, modern education, pedagogical technology, form, method, medium, science, creativity, activity, improvement, approach.

Резюме:

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda variativ tushunchalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslarini takomillashtirish, bu jarayonda o'quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalari mohiyati, ularning o'zlashtirish holati, bilimlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi, ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini uyg'unlashtirish, o'quvchilar shaxsiga individual va umumiy yondashish, o'qitish metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos jihatlari keltirilgan.

Резюме:

Данная статья включает в себя изучение вариативных форм обучения психологов-педагогов основам совершенствования, в том числе совершенствование теории, практики, навыков и компетенций, изучение состояния, совершенствование инновационных технологий обучения, создание плодотворного общества, создание общества совершенствования, создание методов, средств и форм уйгушлаштириша, создание индивидуальных и общих уйгушлаштириша, создание методик совершенствования, характерных для кельтских народов.

Summary:

In this article, improving the psychological and pedagogical foundations of the formation of variative concepts in primary education, the theoretical knowledge of students in this process, the essence of practical skills, qualifications and competencies, their state of assimilation, the gradual implementation of knowledge, the effectiveness of the use of innovative educational technologies in teaching, the harmonization of educational content, teaching methods, tools and forms, the



individual and general approach to the personality of students, the peculiarities of improving the teaching methodology are presented.

Dunyo miqyosida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim jarayonida o'quvchilarni individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish, o'quvchilarning iqtidori va qobiliyatini shakllantirishda uzliksiz ta'limning asosiy bog'ini hisoblangan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu jarayonning asosini o'quvchilarning o'quv materiallari bilan o'zaro aloqasi tashkil etadi. Buning natijasida o'quvchining ijtimoiy, shaxsiy hamda intellektual taraqqiyoti ta'minlanadi. O'quvchining o'z faoliyatini individual boshqarishi uning shaxsiy maqsadlari bilan bog'liqdir. O'quvchilarning bunday ideallari jumlasiga ularning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari, amal qiladigan qadriyatlarini, intellektual rivojlanishdagi faolliklari kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash maqsadida "ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy va xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish" sohalarda tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yuqori sifatli kadrlar tayyorlash salohiyatiga bog'liq. Shu bois, yangi O'zbekistonning dastlabki kunlaridanoq jahon andozalari darajasida kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish vazifasi qo'yildi.

Jumladan, yurtimizning har bir sohasi jadal taraqqiy etayotgan bir davrda yosh avlodni ma'naviy, etuk shaxs qilib tarbiyalash-davrimizning, eng asosiy masalalaridan biriga aylangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asarida alohida to'xtalib o'tgan. Mazkur jarayonda shaxsga yo'naltirilgan individual ta'lim jarayonlari ta'sirchanligi, barqarorligini ta'minlashning psixologik-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, individuallikka yo'naltirilgan o'qitishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda tabiiy fanlarning roli katta. Shunga ko'ra, murg'ak qalblarga ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchilarning oldilarida eng muhim vazifalaridan biri ham o'quvchilarning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz berayotgan voqea - hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Binobarin, boshlang'ich sinf o'quv jarayonida variativ tushunchalarni shakllantirishda tushunchalarning mohiyatiga bir nazar tashlasak. Tushuncha bu-tafakkur mahsuli hisoblanadi. Tushunchalar qabul qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga keladi. Masalan, gulni tasavvur qilish uchun unga qarash etarli. O'sha gul to'g'risida tushuncha hosil qilish uchun esa aniq bilim va ularni tizimlashtirish bo'yicha fikrlash lozim bo'ladi.

Tushuncha-narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha bilish mahsulidir, bu bilish oddiydan murakkabga ko'tarilab, tushunchalarni mukammallashtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biron narsani boshqa narsadan fikran ajratishdan iborat. Fanlarni turkumlarga ajratish va tabiiy fanlarni tushunchada umumlashtirish tabiat qonunlarini bilishning zarur shartidir. Har bir fan muayyan tushunchalar bilan ish ko'radi, ularda bilimlar jamlanadi.

Tushunchaning shakllanishi so'z bilan bog'liq. Ular o'rtasidagi uzviy aloqadorlik tafakkur va til o'rtasidagi bog'lanishning aniq tarzda namoyon bo'lishidir. Tushunchalar so'z va so'z birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Har qanday tushuncha-abstraksiyadan iboratdir, bu hol tushunchada voqelikdan uzoqlashgandek tuyulsada, haqiqatda esa tushuncha yordamida voqelikning muhim tomonlarini ajratib, tadqiq qilish yo'li bilan chuqurroq bilib olinadi. Tushunchalarning o'zaro aloqadorligi va bir-biriga o'tib turishi dialektik mantiqning tushuncha haqidagi qoidalarning muhim tomonlaridan biridir.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'quv jarayonida variativ tushunchalarni shakllantirish nafaqat dars jarayonida balki, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham materillarni to'g'ri tanlashda ya'ni tirik tabiat burchagi, geografik maydonchalarida alohida e'tibor qaratilishi lozim. Tabiatni tushuntirishga oid materiallar tanlash bilan ish o'z nihoyasiga etib qolmaydi. Tanlangan materiallarni amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilar bilimi mustahkamlanib



boriladi. O'quvchilarni shu maqsadda turli ekskursiyalarga, mehnat va umumiy kuzatish, tabiat burchagidagi mashg'ulotlarda o'z aksini topadi.

Jumladan, N.X.Oripovaning tadqiqot ishida jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari tajirbasiga ko'ra, shaxsning individualligini namayon etishiga ko'maklashish va pedagogik qo'llab quvatlash masalasi ta'lim jarayonining yagona ishi va bu jarayonda talabalarning pedagogik etiqotini variativ modellashtirish asosida rivojlantirish samarali yo'llaridan biridir deb, ta'kidlaydi.

Shaxsning rivojlanishi uning qaysi muhitda kamol topib qanday ta'lim va tarbiya olganligi bilan belgilanib, atrof-muhitga bog'liq bo'lgan psixikaning rivojlanishini o'z ichiga oladi. Maktab o'quvchilari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tabiiy hodisalar ularning psixik rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy holatlardan biri hisoblanadi. Ushbu holat maktab o'quvchisining tabiat hodisalariga obyektiv munosabatni yuzaga keltiradi, o'zgartiradi, qolaversa yangi ichki hissiy kechinmalarni yuzaga keltiradi.

O'quvchilarning his-tuyg'ulari va o'zlarini o'rab turgan atrof-olamga nisbatan munosabatlari, asosan, ko'rgazmali xarakterdagi o'quv materiallari yordamida boyitiladi. O'quvchilarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga oid axloq-odob me'yorlari ham tabiiy o'quv materiallari tarkibida o'quvchilarga taqdim etiladi. Tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat o'quvchilarning kundalik faoliyatida amal qiladigan asosiy mezoniga aylangandagina kompetensiya darajasida shakllanadi.

O'quv jarayonida ushbu shartlar o'quvchining tabiatga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil qiluvchi munosabatlarning mukammal elementlariga aylantiriladi, o'qituvchi uning yordami bilan maktab o'quvchilarini ongiga ta'sir qiladi. Bizning ilmiy farazimizcha ushbu masalada atrof-muhit bilan o'zaro aloqani ajralmas ta'lim jarayoniga aylantirish uchun obyektiv va subyektiv sharoitlarni yaratish, istiqbolli vazifalarni belgilash muhimdir.

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'quv jarayonida variativ tushunchalarni shakllantirish natijasida darsning amaliy ahamiyati ortadi. Natijada esa o'quvchilarning ichki imkoniyatlari, yangi qirralari ochiladi. Shu bilan bir qatorda, ularda mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi, o'z-o'ziga ishonch hissi ortadi, fanni o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi, ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi, kelajakdagi o'z hayotiy faoliyatiga tayyorlanishi uchun rag'bat hosil bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida variativ tushunchalarni shakllantirishda didaktik talablardan tashqari tarbiyaviy, psixologik, gigiyenik talablar ham mavjud bo'lib, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini har tomonlama etuk



insonlar qilib tarbiyalashda ilk qadamlar qo'yilishida tabiiy o'quv mashg'ulotlari katta imkoniyatga ega. U o'quvchilarni aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, tabiiy jarayonlar uyg'unligini ta'minlaydi.

Xususan, boshlang'ich sinf o'quv jarayonida variativ tushunchalarni shakllantirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Shunga muvofiq o'qituvchi darsga tayyorlana turib, o'quv dasturi va metodik ko'rgazmalilikka tayanib, mazkur darsda qanday asosiy tushunchalar, o'quv va ko'nikmalar hosil qilishni, qanday tarbiyaviy g'oyalarni, ular ongiga singdirilishini, o'quvchilarning idrokiy qiziqishlarini qondirishga qaysi yo'l bilan yordam berish lozimligini aks ettiradi.

O'qituvchining diqqati o'quvchilarga dunyodagi borliq avvalo real hayot haqida, ya'ni ularning o'ziga xos xususiyati va qonuniyatlari asosida rivojlantirishdir, shuningdek, ularda doimiy o'zgarish va rivojlanish asosida har bir dars mavzusi mazmuniga muvofiq tarzda oydinlashtirib boriladi. Kundalik darslar jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga estetik tarbiya berish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quv jarayonida variativ tushunchalarni shakllantirishda har bir o'qituvchining psixologik xususiyatini: tanib olish, eslash, yod olish, fikrlarni tinglash, diqqatni mavjudligini, irodasi va yaqin maqsadlar qo'ya olishini, hissiy faolligini e'tiborga olish lozim.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: O'zbekiston, 2019. -591 b.
2. Ahliddinov R. Hozirgi bosqichda pedagogik boshqaruvning dolzarb muammolari //Respublika ilmiy-amaliy konf. mat.-T.: O'zPFITI, 2002. - 46 b.
3. Baratov Sh. Kichik yoshdagi o'quvchilar faoliyatini baholash. Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 47 b.
4. Vahobov M.M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish: p.f.d., diss.-Toshkent, 2016. -244 b.
5. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: p.f.d., diss.-T.: O'zPFITI, 2005. - 265 b.
6. Narbutaev H.B. Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.
7. Oripova N.X. Variativ modellashtirish asosida talabalar pedagogik e'tiqotini shakllantirish nazariyasini tizimlashtirish (boshlang'ich ta'lim ixtisosligi misolida): pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. -Termiz, 2022. - 213 b.